

## Akademik katta teatrga tashrif

"Gidromelioratsiya" fakulteti SXM-302 - guruh talabalari va guruh murabbiyi Sh.Mardievlar Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatriga tashrif buyurishdi. Teatrda ma'naviy hordiq chiqazish uchun hamda teatrdan ibrat olish uchun ham juda kerakli maskanlardan biri. Ushbu tashrif muhim ahamiyatga molik bo'ldi.



«Maysaraning ishi» hajviy komediya janrida tashkil etilgan. Spektaklda aktyorlar jamoasi tomonidan mahorat bilan ijro etildi. Spektakl insonni o'ylashga, mushohada yuritishga undaydigan chuqur mazmunga egaligi bilan talaba yoshlar ma'naviyatiga ijobiy ta'sirini o'tkazdi desak, adashmagan bo'lamiz. Tomosha jarayonida inson ongida bir fikr uyg'onishi tabiiy. Bu yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir mazmunidagi xalq naqlidir.



**Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasasi assistenti Sh.Mardiev axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**